



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 22-avgust

422-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati mahallalarida oilalar daromadlarini oshirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-iyundagi 365-son qarori ijrosi haqida”gi 385-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Namangan viloyatida “Sayxunobod, Uychi va Zarbdor tajribasi”ni keng joriy qilish asosida tomorqadan foydalanishni tubdan yaxshilash, mahallalarda oilalarning doimiy daromad manbalarini shakllantirish hamda tijorat banklari mijozlarini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati mahallalarida oilalar daromadlarini oshirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholi bandligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 28-iyundagi 365-sonli hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-avgustdagi 385-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 16-avgustdagi 385-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 365-son qarori bilan:
Quyidagilar:

2024-yil yakuniga qadar mahallalarda mikro va kichik loyihalarni oyma-oy amalga oshirish hamda tijorat banklari va “yetakchi” tadbirkorlar ko‘magida beriladigan “maslahat va moliyaviy xizmat paketi” ajratishning maqsadli ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

Mahallalarda aholi daromadlarini oshirish va yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida ajratiladigan grantning tuman (shahar)lar kesimidagi maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

Mahallalarda aholi tomonidan yetishtirilgan yoki ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga ko‘maklashuvchi “yetakchi” tadbirkorlarga baholangan umumiy qiymatining 1 milliard so‘mgacha qismi grant sifatida ajratiladigan bo‘sh turgan va auksionlarda sotilmayotgan davlat mulki obyektlarining manzilli ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatida “bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida loyihalarni amalga oshirishning manzilli ro‘yxati 4-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatining tuman va shaharlarida zaxira hamda imkoniyatlarni ishga solish orqali hududlarni rivojlantirishni yanada jadallashtirish va aholi bandligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari dasturi 5-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatida tijorat banklari filiallarida hamda mijozlar faoliyat ko'rsatayotgan obyektlarda uchrashuvlar o'tkazishning maqsadli ko'rsatkichlari 6-ilovaga muvofiq;

Uychi tumanini ishsizlik va kambag'allikdan holi hududga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 7-ilovaga muvofiq;

Namangan viloyatida aholi daromadlari va bandligini oshirish bo'yicha Respublika va hududiy ishchi guruhlar tarkiblari 8 va 9-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga ko'ra Namangan viloyatida:

a) mahallalarda mikro va kichik loyihalarni amalga oshirish yo'nalishida:

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimlarining yordamchilari (keyingi o'rinlarda hokim yordamchilari) har oyning 5-sanasiga qadar mahallaga biriktirilgan tijorat banklari filiallari va jalb qilingan "yetakchi" tadbirkorlar bilan birgalikda mikro va kichik loyihani amalga oshirish bo'yicha tashabbuskorlarni aniqlaydi hamda loyihalar va "maslahat va moliyaviy xizmat paketi" ro'yxatini shakllantirishi;

tuman (shahar) hokimining birinchi o'rinbosarlari har oyning 10-sanasiga qadar loyihalarni amalga oshirish hamda "maslahat va moliyaviy xizmat paketi"ni ajratishning reja jadvalini tasdiqlashi hamda uning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli tijorat banklari filiallari va hokim yordamchilari bilan birgalikda mas'ul hisoblanishi;

b) bo'sh turgan davlat mulki obyektlarida yangi loyihalarni amalga oshirish yo'nalishida:

tuman (shahar) hokimining birinchi o'rinbosari Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Namangan viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda har chorakning 10-sanasiga qadar grant asosida beriladigan davlat mulki obyektlarini tadbirkorlik subyektlariga taklif qilishi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Namangan viloyati hududiy boshqarmasi "yetakchi" tadbirkorlarga maslahatlar berishi hamda tegishli davlat mulki obyektlarini grant asosida ajratishni rasmiylashtirish ishlarini tashkil etishi;

grant Davlat budjeti mablag'lari hamda nostrategik davlat mulki obyektlari hisobidan belgilangan tartibda tadbirkorlarga Davlat budjeti mablag'lari hisobidan yaratiladigan ish o'rinlari sonidan kelib chiqib, 1 milliard so'mgacha ajratilishi;

v) "bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida namunali loyihalarni amalga oshirish yo'nalishida:

tuman (shahar) hokimining birinchi o'rinbosari tijorat banklari filiallari, ushbu tijorat banklari filiallari jalb etgan "yetakchi" tadbirkor hamda dehqon xo'jaliklari bilan birgalikda 2024-yil iyul oyida tegishli konturda amalga oshiriladigan loyihaning biznes rejasini ishlab chiqishga hamda dehqon xo'jaliklari o'rtasida yoki dehqon xo'jaliklari va "yetakchi" tadbirkorlar bilan hamkorlikda ekin ekishni va agrotexnik tadbirlarni tashkil etishi;

tijorat banklari filiallari "yetakchi" tadbirkor va dexqon xo'jaliklariga ekinlarni ekish, saqlash, quritish, qayta ishlash uchun zarur bo'lgan kreditlarni ajratishi;

g) tuman (shahar)larda zaxira va imkoniyatlarni ishga solish bo'yicha "drayver" loyihalarni amalga oshirish yo'nalishida:

tuman (shahar) hokimlari bir oy muddatda aniqlangan "drayver" loyihalarning har biri bo'yicha tarmoq jadvalini tasdiqlashi;

tuman (shahar) hokimining birinchi o'rinbosari "drayver" loyihalar amalga oshirilishini muvofiqlashtirishi hamda aniqlangan muammoli masalalarni hal etish bo'yicha takliflarni Respublika va hududiy ishchi guruhlariga kiritishi;

d) tijorat banklari mijozlarining muammolarini hal qilish orqali aholining bandligini oshirish yo'nalishida:

Namangan viloyati hokimining birinchi o‘rinbosari tijorat banklari bilan birgalikda bir oy muddatda tijorat banklari filiallarida tadbirkorlar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvlar grafigini tasdiqlashi;

tasdiqlangan grafikka asosan tuman (shahar) hokimlari, infratuzilma tashkilotlari, iqtisodiy kompleksga kiruvchi idoralar ishtirokida tijorat banklari filiallarida yoki joyiga chiqqan holda tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashuvlar tashkil etilishi;

uchrashuvlarda ko‘tarilgan muammoli masalalar va takliflarni hal etishda tuman (shahar) hokimlari infratuzilma, yer, bino va inshoot bilan bog‘liq hamda shu kabi boshqa masalalarni, tijorat banklari moliyaviy masalalarini hal etish choralari ko‘rishi;

viloyat va respublika darajasida hal etiladigan muammo hamda takliflarni hal etish uchun har oy tegishligi bo‘yicha Respublika va hududiy ishchi guruhlariga ma‘lumot kiritilishi;

qarorning 2-bandida keltirilgan topshiriqlar ijrosini tashkil etish, ularni amalga oshirish hamda monitoring qilib borish vazifalari tegishli Respublika va hududiy ishchi guruhlariga yuklanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi Namangan viloyati hokimligi bilan birgalikda bir oy muddatda Chortoq tumanini urbanizatsiya qilish bo‘yicha namunali hududga aylantirish maqsadida “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni jadallashtirish dasturini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

bunda:

loyiha va pudrat tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq aniqlashni joriy qilish;

Chortoq tumani markazini kesib o‘tuvchi “Chortoqsoy” soyi bo‘yida piyodalar uchun 11 kilometr uzunlikdagi salomatlik yo‘lagini qurish;

“Furqat” madaniyat va istirohat bog‘i va unga tutash hududlarni rekonstruksiya qilish;

ichimlik suvi va oqova suv tizimini yaxshilashda bazalt va polietilen quvurlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

joriy yil yakuniga qadar 14 million dollar miqdoridagi mablag‘larni o‘zlashtirish va qo‘shimcha loyihalarni boshlash nazarda tutilganligi;

Toshkent viloyatining Angren shahridan Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanigacha bo‘lgan 100 kilometr masofada yo‘l bo‘yi infratuzilmasini tartibli tashkil qilish maqsadida:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi Namangan viloyati hokimligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Toshkent viloyati hokimligi, Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi bilan birgalikda:

2024-yil 1-avgustga qadar Namangan viloyati hokimligi tashkiliy tuzilmasida viloyatdagi budjet tashkilotlarining amaldagi shtat birliklari soni doirasida 6 ta shtat birligidan iborat “Hudud rivojlanishiga turtki beruvchi zaxira va imkoniyatlarni ishga tushirish” loyiha ofisini (keyingi o‘rinlarda Loyiha ofisi) tashkil qilishi;

2024-yil 5-avgustga qadar tuman (shahar)larda aniqlangan zaxira va imkoniyatlarni ishga solish bo‘yicha loyihalar tarmoq jadvalini tasdiqlab, ularning amaliyotga joriy etilishini muvofiqlashtirib borishi;

2024-yil 10-avgustga qadar Loyiha ofisi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha nizomni ishlab chiqishi va tasdiqlashi;

to‘rt oy muddatda Loyiha ofisi buyurtmachiligida yo‘lbo‘yida savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, hunarmandchilik va logistika markazlari hamda mehmonxonalarini joylashtirishni nazarda tutuvchi “master-reja” ishlab chiqishi hamda “master-reja”ga muvofiq yo‘l bo‘yidagi yer maydonlari auktsionga chiqarilishini tashkil etishi;

b) Toshkent viloyati hokimligi Loyiha ofisi tomonidan belgilangan tartibda jalb etiladigan master-rejani ishlab chiquvchi tashkilot (kompaniya)ga yo‘ning Toshkent viloyatining Angren shahridan Namangan viloyati hududi chegarasigacha bo‘lgan qismi bo‘yicha tegishli ma’lumotlar olishda ko‘maklashishi;

quyidagilar Loyiha ofisi faoliyatini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari etib belgilanganligi:

har bir tuman (shahar) rivojlanishiga turtki beruvchi imkoniyat va zaxiralardan kamida 5 ta loyihani amalga oshirishni;

master-rejalarni o‘z vaqtida ishlab chiqishni va tasdiqlashni, master-rejaga muvofiq kamida 50 gektar yer uchastkasini auksionga chiqarishni ta‘minlash;

belgilanishicha, Loyiha ofisi rahbariga viloyat hokimining o‘rinbosari, xodimlariga viloyat hokimligi xodimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash shartlari tatbiq etilishi;

a) Respublika ishchi guruhi (Norqulov, Saydullayev) har oyda kamida bir marta joyiga chiqqan holda, belgilangan vazifalarning ijrosini tanqidiy tahlil qilib, ularni amalga oshirishni tezlashtirish va yuzaga kelgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha choralarni ko‘rib boradi hamda respublika darajasida hal qilinadigan masalalarni Vazirlar Mahkamasiga kiritishi;

b) Bosh vazir o‘rinbosari iqtisodiyot va moliya vaziri J.A.Qo‘chqorov:

ijobiy natijalarga erishgan rahbar va mas‘ul xodimlarga rag‘batlantirish, kamchilik va sustkashlikka yo‘l qo‘ygan iqtisodiy kompleksga kiruvchi idoralar rahbarlari va mas‘ul xodimlariga intizomiy choralar ko‘rishi;

tuman (shahar)larda drayver loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish va ularni amalga oshirishdagi hamda tijorat banklari mijozlari tomonidan ko‘tarilgan muammoli masalalarni tezkorlik bilan hal etish choralarini ko‘rishi, zarur hollarda ushbu masalalarga oid muammolarni yechishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqilishini ta‘minlashi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov, iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) bilan birgalikda viloyat hokimligining tashkiliy tuzilmasida viloyatdagi budjet tashkilotlarining amaldagi shtat birliklari soni doirasida 6 nafar shtat birligidan iborat “Hudud rivojlanishiga turtki beruvchi zaxira va imkoniyatlarni ishga tushirish” loyiha ofisini (keyingi o‘rinlarda Loyiha ofisi) tashkil qilishi;

Viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov, viloyat hokimligining tashkiliy kadrlar guruhi rahbari B.Boboxonov bilan birgalikda Loyiha ofisi faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida munosib nomzodlarni tanlov asosida tayinlash choralarni ko‘rishi.

Viloyat hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiya masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Nuritdinov, Ekologiya, atrof - muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi (A.Jalilov) Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov), Kosonsoy tumani (D.Qodirov), Chust tumani (B.Salimjanov), Chortoq tumani (I.Sattarov), Pop tumani (A.Sultanov) hamda Yangiqo‘rg‘on tumani (A.Najmiddinov) bilan birgalikda:

2024-yil 1-sentabrga qadar Kosonsoy, Chust, Chortoq, Pop hamda Yangiqo‘rg‘on tumanlarida tog‘ oldi turizmini rivojlantirish “master-reja”sini ishlab chiqsin;

2024-yil 1-oktabrga qadar tog‘ oldi turizmini rivojlantirish bo‘yicha tadbirkorlarni aniqlab, 2024-yil yakuniga qadar loyihalarni boshlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman hokimining o‘rinbosarlari X.Boylarov, Sh.Umaraliyev, B.Mo‘ydinov hamda J.Raximov, manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-iyundagi 365-son qarorining 5, 7-ilovasi bilan tasdiqlangan “Chora-tadbirlari dasturi”da nazarda tutilgan topshiriqlar o‘z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta‘minlasin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov